



INVESTIGATION FONDLARNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHGA OID HUQUQIY MASALALAR BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI.

Raimov Farrux Avazjon o'g'li,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar bozori

kafedrası magistranti

Toshkent, O'zbekiston. Email: rakhimovexclusive@gmail.com

ORCID: 0009-0007-2769-2261

FOREIGN EXPERIENCE ON LEGAL ISSUES REGARDING THE ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF INVESTMENT FUNDS.

Raimov Farrukh Avazjon ugli,

Tashkent State University of Economics

Master of Department

Corporate finance and stock market

Tashkent, Uzbekistan. E-mail: rakhimovexclusive@gmail.com

ORCID: 0009-0007-2769-2261

JEL Classification: G30, G38

Annotatsiya. Ushbu maqolada qimmatli qog'ozlar bozori faoliyati rivojlanishida muhim o'rin egallaydigan investitsion fondlar faoliyatini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqiladi. Investitsion fondlar faoliyatini amalga oshirishda investitsion fondlarni tashkil etish hamda boshqarishga oid bo'lgan huquqiy me'yorlar o'rganilib, bu bo'yicha Amerika Qo'shma Shtatlari, Lyuksemburg va Qozog'iston Respublikasi qonunchiligidagi talablar ko'rib chiqildi. Jahonda investisiya fondlari faoliyatini samarali huquqiy tartibga solish, raqamli iqtisodiyot sharoitida investisiya fondlarining yangi innovasion shakllari xususiyatlarini tadqiq etish, aholini investisiyalash jarayonlariga kengroq jalb etish hamda investorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish bo'yicha ilmiy tahlillar o'tkazilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, investisiya fondlarining moliyaviy xizmatlar bozori tizimidagi o'rnini belgilash va ularni boshqa moliyaviy vositachilardan farqlash, ularning fuqarolik-huquqiy maqomini belgilash maqsadida normativ-huquqiy bazani tizimlashtirish va takomillashtirish, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish, qonun hujjatlari va huquqni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq muammolarning ilmiy yechimini topish dolzarblik kasb etmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotiga investisiya fondlari o'z hissasini qo'sha olmayapti. Bu holat mamlakatimizda fond bozorining rivojlanmaganligi bilan uzviy bog'liqdir. Shuningdek, milliy moliyaviy xizmatlar bozorida tijorat banklarining yaqqol ustunligini ko'rish mumkin. Bu esa biznesni muqobil usullarda moliyalash imkoniyatlarini kamaytiradi. Respublikamizda ishbilarmonlik



va biznes muhitini yanada yaxshilash, qimmatli qog'ozlar bozorining huquqiy asoslarini yaratish, aholining bo'sh mablag'larini iqtisodiyot tarmoqlariga keng jalb etish, aksiyadorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga alohida ahamiyat berilib, qator maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, jamoaviy investitsiyalash institutlarini rivojlantirish, xususiy kompaniyalarning fond bozoriga kirishini yengillashtirish, venchur investitsiyalashni rag'batlantirish, «kapitalni jalb qilish hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish» iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanganligi mazkur sohani tadqiq etish zarurligini ko'rsatmoqda.

Abstract. This article examines the issues of improving the activities of investment funds, which play an important role in the development of the stock market. In the implementation of the activities of investment funds, the legal norms related to the organization and management of investment funds were studied, and the requirements of the legislation of the United States of America, Luxembourg and the Republic of Kazakhstan were considered. In the world, special attention is being paid to the effective legal regulation of the activities of investment funds, researching the characteristics of new innovative forms of investment funds in the digital economy, wider involvement of the population in investment processes, and scientific analyzes on the reliable protection of the rights and legal interests of investors. In particular, in order to determine the position of investment funds in the financial services market system and distinguish them from other financial intermediaries, systematize

and improve the regulatory legal framework in order to determine their civil-legal status, adapt national legislation to international standards, and relate to legislation and law enforcement practice. It is becoming urgent to find a scientific solution to these problems. Investment funds are unable to contribute to the economic development of our country. This situation is closely related to the underdevelopment of the stock market in our country. It is also possible to see the clear dominance of commercial banks in the national financial services market. This reduces the possibility of financing the business in alternative ways. A number of targeted measures are being implemented in our republic to further improve the business and business environment, to create the legal basis of the securities market, to widely attract free funds of the population to economic sectors, to reliably protect the rights and legal interests of shareholders. In particular, the development of collective investment institutions, facilitating the access of private companies to the stock market, encouraging venture investment, "developing the stock market as an alternative source for attracting capital and deploying the free resources of enterprises, financial institutions and the population" is one of the priority directions of economic development and liberalization. defined as indicates the need to research this area.

Kalit so'zlar: qimmatli qog'ozlar bozori, investitsiya, investitsion fondlar, ta'sischi, aksiyador, shartnomaviy fondlar, pay.

Keywords: stock market, investment, investment funds, founder, shareholder, contractual funds, shares.

Kirish. Investitsion fondlar faoliyatini takomillashtirish mamlakat iqtisodiy o'sishi hamda qimmatli qog'ozlar bozorini

rivojantirishda muhim ahamiyat kasb etishini rivojlangan davlatlar tajribasidan ham ko'rishimiz mumkin. Qimmatli qog'ozlar bozori kapital bozorining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanishini inobatga olgan holda, bozorni rivojlantirish va ushbu faoliyatni samarali tashkil etish har bir mamlakat boshqaruvining muhim strategik yo'nalishlardan biri ekanligi sir emas. Qimmatli qog'ozlar bozorida yirik va har tomonlama samarali faoliyat olib boruvchi investitsion fondning mavjudligi muhim o'rin egallaydi. Shu sababli, bugungi kunda ushbu yo'nalishdagi ishlar respublikada investitsiya fondlarining rivojlanishini ta'minlaydigan qonunchilik bazasini faol shakllantirish masalalariga qaratilmoqda.

Investisiya fondlarining ahamiyati va zarurati tahlil etilganda, ushbu moliyaviy vositachilarga mamlakatimiz iqtisodiyotida katta ehtiyoj borligi ayon bo'ldi. Ayniqsa, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda mablag'ga bo'lgan talabning turli qonuniy vositalar orqali tez va samarali qondirilishi iqtisodiy taraqqiyotni kafolatlaydi. Investisiya fondlarining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining faol diversifikasiyalanishi, bo'sh mablag'larning iqtisodiyot tarmoqlariga oqilona yo'naltirilishi, kapital bozorining likvidligini oshirish, investorlar huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, samarali korporativ boshqaruvni ta'minlash va moliyaviy xizmatlar bozorida raqobat muhitini yaratilishiga olib keladi.

Aksiyadorlik jamiyatlari va investitsion fondlar tarixida turli ko'lamdagi moliyaviy firibgarliklar amalga oshirilgan. Aynan shu ko'rinishdagi firibgarliklar hamda moliyaviy piramidalarga qarshi kurashish maqsadida investitsiya fondlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Investitsiya fondlari professional boshqaruv va diversifikatsiya orqali investorlarning

tavakkalchilik xavf-xatarlarini kamaytirib, jalb etilgan pul mablag'larini iqtisodiyotning turli tarmoqlariga yo'naltiradi. Faoliyat tavakkalchilik asosida amalga oshirilganligi uchun daromad oldindan vada qilinmaydi balki ishlab topilgan mablag'largina daromad sifatida taqsimlanadi.

Material va metod. Investisiya fondlari jahon iqtisodiyoti uchun nisbatan yangi fenomendir. Olimlarning fikricha, investisiya fondlarining paydo bo'lishiga bir qator omillar sabab bo'lgan. Ye.A.Suxanovning ta'kidlashicha, dastlab yirik tadbirkorlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy shakli sifatida aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil qilish g'oyasi ko'plab mayda omonatchilarning tarqoq va kichik xajmdagi mablag'larini birlashtirish yo'li bilan yirik kapitalni shakllantirishdan iborat edi. Aksiyadorlik biznesining rivojlanishi mayda va tarqoq investisiyalarni jalb qilishga kuchli ehtiyoj sezmaydigan hamda an'anaviy aksiyadorlik qonunchiligi bilan kafolatlangan huquq va imkoniyatlarni mayda aksiyadorlarga endilikda amalda taklif etishni xohlamaydigan zamonaviy yirik korporatsiyalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bugungi kunda klassik aksiyadorlik jamiyatlarining o'rnini mayda investisiyalarni jamlaydigan va undan foydalanadigan tashkiliy-huquqiy shakllar va pay fondlari egalladi [8]. Ye.Ivanovning fikricha, investisiya fondlari dastlab qimmatli qog'ozlar bozorida faqatgina maslahat berish faoliyati bilan shug'ullangan. Keyinchalik asta-sekinlik bilan mayda investorlarning ishonchini qozonganidan so'ng mustaqil investisiyalash bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lgan [9].

Yevropada aksiyadorlik jamiyatlari orqali moliyaviy firibgarlikni sodir qilish holatlari ko'payishi natijasida investorlar bevosita o'zlari investisiya qilishdan ko'ra bu

borada professional vositachilarga murojaat qilishni afzal bila boshlagan. Olimlarning fikricha, investisiya fondlari moliyaviy piramidalarga qarshi kurashish uchun yaratilgan tuzilmalar hisoblanadi. Bu fikrga to'laqonli qo'shilish mumkin. Investisiya fondlari professional boshqaruv va diversifikatsiya orqali investorlarning tavakkalchilik xavf-xatarini kamaytirib, jalb etilgan mablag'larni iqtisodiyot tarmoqlariga safarbar etadi [10]. Faoliyat tavakkalchilikka asoslanganligi uchun daromad oldindan va'da qilinmaydi hamda ishlab topilgan mablag'largina daromad sifatida taqsimlanadi. Jumladan, O'zbekiston korporativ qonunchiligini tahlil qilgan S.Gulyamov unda jiddiy kamchiliklar borligini, amaldagi qonunchilik aksiyadorlarning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qila olmasligini, bundan tashqari aksiyadorlar har doim ham sud va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlardan malakali yordam va himoya ola olmasligini ta'kidlaydi¹. Ushbu fikrni qo'llab-quvvatlab, mazkur holatlar aholining aksiyador bo'lishiga jiddiy to'siq bo'ldi, deyish mumkin. Z.Axmadjonova dividendlarning o'z vaqtida va adolatli taqsimlanishida aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish borasida kuchlarni birlashtirishga yo'naltirilgan turli xildagi nodavlat tashkilotlarni tashkil etishni rag'batlashtirishni taklif etadi. Biroq muallif aynan qanday tashkilotlar tashkil etish kerakligini o'z ilmiy ishida keltirmagan. Bu fikrga qo'shib bo'lmaydi. Biroq Z.Axmadjonova aksiyadorlarni himoya qilishda nodavlat o'zini-o'zi boshqarish tashkilotlari sud va ma'muriy organlardan samaraliroq ishlay olishini ta'qidlaydi. Bizning fikrimizcha, investisiya fondlarining asosiy vazifasi

aksiyadorlar huquqlari va ularning mulkiy manfaatlarini muhofaza qilish hisoblanadi. Kichik aksiyadorlarning ulushlari portfelini tashkil etib, fondlar tomonidan boshqariladi. Shu o'rinda, korporativ qonunchilikning eng asosiy qo'llovchilari investisiya fondlari ekanligini ta'kidlash kerak.

Natijalar. Yurtimizdagi amalda bo'lgan qonunchilik moliyaviy vositachilarni davlat ro'yxatidan o'tkazishda maxsus talablarni o'rnatadi. Bugungi kunda mamalakatimizda, tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari va mikrocredit tashkilotlari kabi moliyaviy vositachilar samarali faoliyat olib bormoqda. Butun dunyoda investitsiya fondlari banklar uchun jiddiy raqobatchi hisoblanadi va faoliyati ham banklarning faoliyatiga deyarli o'xshash ekanligi ko'rinadi. Shu bois tijorat banklarini davlat ro'yxatidan o'tkazishni investitsiya fondlari uchun analogiya sifatida qabul qilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida banklarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun alohida tartib yo'lga qo'yilgan. AQSh qonunchiligida investitsiya fondlarini tashkil etish bo'yicha uch bosqich tashkil etilgan. Qaror qabul qilish, hujjatlarni tayyorlash hamda ulushlarni joylashtirish. *Birinchi bosqichda* ta'sischi fondni tashkil etish, uning maqsadlari va faoliyat yo'nalishi hamda tashkiliy tuzilmasi to'g'risida qaror qabul qiladi. Har qanday shaxs ham fond ta'sischi bo'la olmaydi. Moliyaviy xizmatlar bozorida kamida 5 yil, shundan kamida oxirgi 3 yilni foyda bilan yakunlagan banklar va boshqa moliyaviy yuridik shaxslar fond ta'sischi bo'lishi mumkin. Ko'pincha investitsiya maslahatchilari fondning ta'sischi bo'ladi. *Ikkinchi bosqichda* hujjatlar tayyorlanib, nazorat va ruxsat beruvchi davlat vakolatli organlariga ro'yxatdan o'tkazish va

tasdiqlash uchun yuboriladi hamda xizmat ko'rsatuvchilar bilan shartnomalar tuziladi. Uchinchi boshqichda fond o'z qimmatli qog'ozlarini keng aholi ommasiga taklif etishi mumkin.


AQSh qonunchiligi bo'yicha investitsiya fondlarining tashkiliy-huquqiy shakli uchun qat'iy qo'yilgan talablari mavjud emas. Tashkiliy-huquqiy shakl masalasi anglo-sakson huquq tizimi va romano-german huquq tizimida bir xil emas. AQSh qonunchiligiga ko'ra investitsiya fondlarining nomi muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rinadi. Investitsiya fondining nomi aldamchi va chalg'ituvchi bo'lmasligi, fondning investitsiyalash ob'ektiga dalolat qilishi kerak. Investitsiya fondining deklaratsiyasi investitsiya fondining investitsiyalash ob'ektlari va investitsiya siyosatini ifoda etishi kerak.

AQSh qonunchiligiga asosan investitsiya maslahatchilari investitsiya fondlarining ta'sischi, birinchi aksiyadori va ijro organi bo'ladi. Ta'sischi investitsiya fondining ilk aksiyadori bo'ladi. U ta'sischi sifatida agar ushbu investitsiya fondi o'z aksiyalarini ommaviy taklif etsa, 100 ming AQSh dollari miqdorida dastlabki kapitalni ustav fondiga kiritishi kerak. Dastlabki kapitalga bunday miqdorda talab qo'yilganligining sababi o'z aksiyalarini qaytarib sotib olishni ta'minlay olish hisoblanadi. Agar tashkil etilayotgan investitsiya fondida boshqa ta'sischi bo'lmasa, ta'sischi ilk aksiyador sifatida fond nomidan barcha shartnomalarni imzolaydi.

Investitsiya fondlari Lyuksemburgda shartnomaviy yoki yuridik shaxs shaklida tashkil etilishi mumkin. Shartnomaviy fondlar umumiy fondlar deb ham yuritiladi. Umumiy

fondlar bank-depozitariy va boshqaruvchi kompaniya o'rtasidagi shartnoma bilan tashkil etiladi. Investorlar bo'linmas umumiy aktivlardagi ulushni tasdiqlaydigan investitsiya paylariga ega bo'ladilar. Umumiy fondlar har doim Lyuksemburgda ro'yxatdan o'tgan boshqaruvchi kompaniyaga ega bo'lishi kerak. Jamoaviy investitsiyalash korxonalarida esa boshqaruvchi kompaniya Yevropa Ittifoqining har qanday davlatida joylashishi mumkin.

Qozog'iston Respublikasining 2004 yil 7 iyulda qabul qilingan "Investitsiya va venchur fondlar to'g'risida"gi Qonunga ko'ra investitsiya fondini tashkil etish to'g'risidagi ta'sis shartnomasini imzolagan yuridik va jismoniy shaxslar investitsiya fondining muassislari bo'lishlari mumkin. Investitsiya fondi kamida ikki nafar muassisga ega bo'lishi kerak. Ushbu farq investitsiya fondini odatdagi aksiyadorlik jamiyatlaridan farqlab turadi. Investitsiya fondi nomiga "investitsiya fondi" so'zlari qo'shib yoziladi. Investitsiya fondlaridan tashqari boshqa shaxslar o'z nomlariga "investitsiya fondi" so'zlarini yoki shunga o'xshash ma'noga ega bo'lgan so'zlarni qo'shib yozish huquqiga ega emaslar. Mazkur qonunning 5-moddasiga ko'ra adliya organlaridan aksiyadorlik investitsiya fondi sifatida davlat ro'yxatidan o'tmagan, investitsiya fondining aksiyalari chiqarilishini vakolatli organdan ro'yxatdan o'tkazmagan, boshqaruv kompaniyasi bilan ishonchli boshqarish to'g'risida shartnoma tuzmagan yuridik shaxslar o'zlarini investitsiya fondi deb atashi, investitsiya fondi sifatida faoliyat olib borishi hamda o'zining nomlanishida "investitsiya fondi" birikmasining har qanday ko'rinishidan foydalanishi mumkin emas.



1-rasm. Top-5 aktivlarni boshqaruvchi kompaniyalar² (2023 yil 1 yanvar holatiga), trln.dollar.

Dunyo bo'yicha boshqaruvdagi aktivlarning qiymati jihatidan yirik investitsion fondlar – aktivlarni boshqarish kompaniyalari hisoblanib, ular asosan AQSh davlatida tashkil etilgan va faoliyat yuritadi (1-rasm).

Munozara. Investisiya fondlariga bo'lgan iqtisodiy zarurat mamlakat iqtisodiyotining kapitalga bo'lgan talabi bilan bog'liq. O'zbekistonda davlat byudjeti va tijorat banklari biznesni moliyalashning asosiy ishtirokchilari bo'lib qolmoqda. Bu jarayonlarda investisiya fondlarining faol qatnashishi aholi qo'lidagi bo'sh pul mablag'larining iqtisodiyotga kirib borishini anglatadi. Investisiya fondlari quyidagi iqtisodiy ehtiyojlarni qondiradi:

- birinchi ehtiyoj bu – jamg'armalarni hosil qilish;
- ikkinchisi rivojlanayotgan iqtisodiyot tarmoqlariga mablag'larni kiritish;
- uchinchisi biznesni moliyalashda davlatning yukini kamaytirish. Shuningdek, investisiya fondlari iqtisodiyotni

sog'lomlashtiradi. Investisiya fondning malakali mutaxassislari korxonalar faoliyatini doimiy tahlil qilib boradi. Natijada, iqtisodiy samara keltirmayotgan korxonalar aksiyalari sotib yuborilib, foyda keltira oladigan korxonalariga tegishli aksiyalar sotib olinadi. Bu esa korxonalar barqaror o'sishni ta'minlash uchun harakat qilishlariga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, investisiya fondlarining faoliyati tavakkalchilikni diversifikatsiya qilishga qaratilganligi bois ular faqatgina bir korxonaning aksiyalarini sotib olmay, balki yuzlab korxonalarining aksiyalariga egalik qiladi. Ushbu holat ko'plab korxonalarda investisiya fondidan moliyaviy ko'mak olish imkoniyati paydo bo'lishiga olib keladi. A.Fridmanning fikricha, investisiya fondlarining pul mablag'larini investisiya qilish, aholi jamg'armalarini saqlab turish, nodavlat pensiya fondlari aktivlari, suveren fondlar va sug'urta kompaniyalari tomonidan jamg'arilgan pul mablag'larini boshqarish, fond bozorining likvidligini oshirish, kapital bozorining beqarorligini kamaytirish, kredit

² Manba: Investitsion fondlarning e'lon qilgan ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlangan.

stavkalarini pasaytirish va ilm-fan va texnikaviy yuksalishni moliyalash kabi vazifalari mavjud. Investisiya fondlarining mamlakatda ommalashuvi va samarali faoliyat yuritishi ko'plab faktorlarga bog'liq. Eng avvalo, mamlakatning iqtisodiyotida investisiya fondlarining paydo bo'lishi uchun ob'ektiv zaruriyat yetilishi kerak. Bu zaruriyat mamlakat aholisining iste'mol jamiyatidan jamg'aruvchi jamiyatga o'tishida namoyon bo'ladi. Rossiyalik olim V.N.Lebedov sobiq Sovet Ittifoqi parchalangandan keyin Rossiya Federatsiyasida investisiya fondlari uning paydo bo'lishi uchun ob'ektiv sabablar paydo bo'lmasdan turib, iqtisodiy munosabatlar rivojlanmagan bir vaziyatda va eng asosiysi bu vaziyatga tayyor bo'lmagan, erkin moliyaviy resurslarga ega bo'lmagan investorlar – aholi bilan sun'iy ravishda tashkil etilganligini tan oladi. Buning oqibatida o'sha paytda tashkil etilgan investisiya fondlari bilan ko'zlangan maqsadga erishilmadi. Bugungi kunda mamlakatimizda aholining yashash sharoitlari va iqtisodiy imkoniyatlari investisiya fondlarining jadal rivojlanishiga yo'l ochishi mumkin. Investisiya fondlarini rivojlantirishga yetarli e'tibor qaratilmayotganligi va ularning faoliyatini tashkil etish uchun zaruriy huquqiy choralar ko'rilmayotganligi bois ko'plab yurtdoshlarimiz o'z mablag'larini xorijiy mamlakatlar birjalariga investisiya qilishni afzal bilishmoqda. Internet va ijtimoiy

yuzasidan ilg'or yondashuvlar va modellarni ko'rib chiqib, quyidagi sabablar tufayli Yevropa modeli O'zbekiston qonunchiligiga mos keladi, degan fikrga kelindi: - birinchidan, Yevropa modeli kontinental huquq oilasida

tarmoqlarda ham xorijiy mamlakatlar fond bozorlariga investisiyalashning huquqiy jihatlarini bilmasdan, pul topishni o'rgatishni reklama qilayotganlar soni ham kundan kun ko'payib bormoqda. Bunday holatda ishonchli himoyaga ega bo'lmasdan harakat qilish moliyaviy yo'qotishlarga olib keladi. Investisiya fondlariga oid qonunchilik bazasining o'z vaqtida yaratilmasligi, mamlakatdan kapitalning chiqib ketishiga olib keladi. Kapitalning muntazam va to'liq chiqib ketishi har bir mamlakat iqtisodiyoti uchun xatarli. Ammo bir mamlakatdan chiqqan kapitalning rivojlangan fond bozorlaridagi harakati va foydaning qaytib kirib kelishini ijobiy baholash mumkin. Shu bois mamlakatimizda ro'yxatdan investisiya fondlariga mablag'larining bir qismini milliy fond bozorlarida, qolgan qismini esa nufuzli xorijiy tan olingan fond bozorlarida listingdan o'tgan kompaniyalarning qimmatli qog'ozlariga investisiya qilish imkoniyatini taqdim etish lozim, deb hisoblaymiz.

Xulosa. Investisiya fondlarining rivojlanishi uchun rivojlangan mamlakatlar qonunchiligida qo'llanilayotgan va investisiya fondlariga oid qonunchilikning ajralmas elementlari bo'lgan investisiya kompaniyasi, shartnomaviy fondlar, xedj fondlar, chakana investor, malakali investor, institusional investor, erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlar, ommaviy taklif etish, xususiy taklif etish kabi kategoriyalarni fuqarolik muomalasiga kiritish taklif etiladi.

Investisiya fondlarini tasniflash

asosida vujudga kelgan; -
ikkinchidan, korporativ investisiya fondlari bo'yicha tashkiliy-huquqiy shakl bir xil;
- uchinchidan, AQSh modeli investisiya kompaniyalari shaklida investisiya fondi va boshqaruv

kompaniyasining alohida sub'ektligiga asoslansa, Yevropa modeli yuridik shaxs bo'lmagan shartnomaviy investisiya fondlarini ham qamrab oladi.

Qimmatli qog'ozlarning likvidligi, professional boshqaruv, diversifikatsiya tamoyili asosida faoliyat yuritish, sof

aktivlarning kunlik xolisona baholanishi, xarajatlarning kamligi va kichik investorlar uchun maqbullik investisiya fondlarining boshqa moliyaviy vositachilardan afzalligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 25 avgustda qabul qilingan "Investisiya va pay fondlari to'g'risida" O'RQ-392-son qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 2 iyunda qabul qilingan "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida" (yangi tahriri) O'RQ-387-son qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 yanvarda "Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5630-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 y.
4. Rasulov N.A. Innovatsiyalarni moliyalashtirishda kraudfanding platformasi mexanizmidan foydalanish. Ilm-fan va innovatsion rivojlanish 2019.
5. Morley J. Why Do Investment Funds Have Special Securities Regulation? Research handbook of mutual funds (William Birdthistle & John Morley eds. 2018)
6. Фридман А.И., Правовое регулирование инвестиционных фондов в России, США и Люксембурге. Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук.-М.:2018.
7. Jumag'ulov A.E. Investitsiya fondlarining fuqarolik-huquqiy maqomi. Toshkent: 2022.
8. Суханов Е.А. Qiyosiy korporativ huquq. –М.: Статут, 2
9. Иванова Е.В. Pay investitsiya fondlarining fuqarolik-huquqiy holati: nazariya va amaliyot masalalari. Dis. Yu.F.N. – М., 2009
10. Гулямов С.С. Korporativ munosabatlar tizimida aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini ishlab chiqish va uni takomillashtirish muammolari. Yuridik fanl
11. www.lex.uz
12. www.investopedia.com

